

**BUXORO SHAHAR**  
**30-SON UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI**  
**MUSIQA FANI O'QITUVCHISI**  
**MUHITDINOVA SHARIFA SAYFULLAYEVNA**  
**ISH TAJRIBALARIDAN**  
**ENG YAXSHI METODIK TAVSIYA**

**O'quvchilarni musiqa merosiga  
muhabbat ruhida tarbiyalashda  
musiqa madaniyati fanining o'rni**  
(metodik tavsiya)



**Buxoro-2021**

## **O'quvchilarni musiqa merosiga muhabbat ruhida tarbiyalashda musiqa madaniyati fanining o'рни**

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yishda, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlarni amalga oshirilganligining guvohiga aylandik. Ayniqsa yoshlar talim-tarbiyasiga bo'lgan qarashlar, davlat siyosatining ustivor maqsadlariga aylanib kelmoqda. Bu borada yoshlarimizning farzandlik burchlarini chuqur anglashga, Vatanga, xalqiga va nihoya o'zi o'sib voyaga etgan mahalla-ko'yiga bo'lgan burchini tushunib etishga barcha imkoniyatlar mavjudligi haqida qancha gapirsak oz. Bunday tamoyillar negizida ma'naviy kamol topgan insongina barkamol jamiyat qurishga tayyor bo'ladi.

Biz hamma vaqt keng ahloqli qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahra olishga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. Davlatimizda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy sanoat sohalarida katta muvafaqqiyatlarga erishganligi tasodifiy emas. Bu sanoat turlari chet elda keng e'tirof etilgan. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarining tarbib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni maonaviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak.

Yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasi negizida estetik qarash hamda estetik munosabatlar yotadi. Olimlarimizning tadqiqotlarida bayon etilishicha estetik tarbiya hamda estetik munosabatlar oiladan, mahalladan va nihoyat maktabdan boshlanishi e'tirof etiladi.

Shu boisdan biz o'z tadqiqot mavzumizni o'rta maktab yoshlari o'rtasida amalga oshirishga reja tuzdik va nihoyat «O'quvchilarning milliy musiqa ijodiyoti asosida estetik munosabatlarini

O'rta maktab tizimida faoliyat ko'rsatayotgan musiqa o'qituvchilarining kundalik sharoitlarida xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan foydalanishga qaratilgan tadbirlarni tahlillash;

-o'quvchilarning milliy musiqa ijodiyoti asosida estetik munosabatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizga tayanishni;

-musiqa ijodiyoti janrlariga tayangan holda o'quvchilarda mehnatga, insoniy muruvvat hamda qadr-qimmatga, vatan, xalq tushunchalariga bo'lgan qarashlarni yuksaltirish;

- millatlararo, xalqlararo hamjihatlik hamda hurmat-ehtiromga etishish;

-o'quvchilarda insoniy sifat-fazilatlarni kamol toptirishda nafosat va go'zallik, sadoqat va himmat kabi axloqiy-estetik unsurlarni tarkib toptirish kabi masalalar yotadi.

Yoshlar estetik tarbiyasi bizning kunlarga kelib o'zining purmano jihatidan yuksalib bormoqda. Mustaqil yurtning yoshlari har tomonlama go'zal insoniy sifat va fazilatlarni o'zlarida namoyon etishlarida, maktab ta'lim-tarbiyasining o'zni beqiyosligini tushungan holda yuqorida nomlangan mavzumizning asosiy g'oyasi aynan milliy musiqa ijodiyotini chuqur o'rganish va yoshlarning bu merosdan bahramand qilish dolzarb masalalar qatoridan o'rin egallaydi. Milliy musiqa merosi o'z xususiyada uzoq va diqqatga molik bo'lgan davrlarni boshdan kechirib kelgan. Bu ijodiy meros asoslarida yoshlar taolim tarbiyasini amalga oshirish masalasi birinchidardan hisoblanadi. Shu boisdan biz, maktab o'quvchi yoshlarining estetik munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan ishlarda musiqa ijodiyotidan foydalanish hozirgi kunimizda eng dolzarb masaladir, deb qaraymiz.

O'quvchi yoshlarning maktab sharoitida olgan bilimi hamda tarbiyaviy asoslarida milliy madaniyat yotadi. O'z vaqtida estetik madaniyat insonning ma'naviy-hissiy faoliyati bilan bog'liq munosabat va qadriyatlar tio'imini ifodalaydi. Shunday ekan biz, yoshlarning estetik munosabatalrini shakllantirishda milliy musiqa ijodiyoti namunalaridan foydalanish oldimizda turgan

maqsad va vazifalarga tayanadimi yoki munosabatlar shakllanishuviga yana boshqa ko'rinish va turdagi omillarning ham o'rni bo'lishi mumkinmi – degan g'oya olg'a suriladi.

Zamona talablariga har tomonlama javob beradigan yuqori ixtisoslik barkamol avlodni tarbiyalash mustaqillik yo'lida borayotgan jamiyatimizning eng oliy maqsadidir. Darhaqiqat, buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, maorifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni targ'iyalash kerak. Bunday insonni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir.

Shunday ekan, biz o'z e'tiboriimizni ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan o'tmishdagi ma'naviy-madaniy boyliklarni, musiqiy meros hamda milliy xalq ijodiyotining ajralmas qismi hisoblanmish o'zbek milliy musiqa san'atini o'rganishni lozim deb qaraymiz. O'tmishdan hozirgi kunimizgacha yoshlar ta'lim-tarbiyasi borasida faoliyat ko'rsatib kelgan murabbiy-ustozlarni pedagogik xususiyatlarini tadqiq etish hamda ahamiyatli tomonlarini maktab yoshlarining kundalik ta'lim-tarbiyasida qo'llashlikni maqsadga aylantirganligimiz batafsil bayon etiladi.

Shu boisdan biz, musiqa madaniyati o'qituvchilar oldimizda turgan vazifalarni amalda joriy etishda quyidagilarga o'z e'tiborimizni qaratdik:

- o'tmish tariximizda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan buyuk siymolar hamda ota-onalarimizdan qolgan qonun-qoidalarga amal qilish;

- o'rta maktablarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaga xos bo'lgan tadbir hamda mashg'ulot turlarini o'rganish;

- mutaxassis o'qituvchilar bilan ta'lim-tarbiyaga xos bo'lgan tadbir hamda mashg'ulotlarga xos bo'lgan mavzularda suhbat o'tkazish;

- estetik ta'lim-tarbiya haqida o'quvchi yoshlar bilan so'roq-javoblar tashkil qilish;

- milliy musiqa ijodiyoti namunalaridan «Musiqqa madaniyati» darslari hamda sinfdan tashqari to'garaklarda

foydalanish;

- maktab va maktabdan tashqari olib boriladigan musiqiy chiqishlarda iqtidorga bo'lgan, qobiliyatli o'quvchilarni jalb etish;

- sinf mashg'ulotlari davomida o'quvchilar o'rtaida milliy musiqa ijodiyotiga bag'ishlangan so'roq-javoblar va testlar o'tkazish va hokazo;

Shuni ta'kidlash joizki, talab va g'oya ta'lim-tarbiya tizimining markaziy masalalaridan hisoblanadi. Shunday ekan, rejamizda o'z aksini topgan barcha masalalar o'z mohiyatiga ko'ra musiqa ta'limi-tarbiyasida ishtirok etayotgan barcha mutaxassislar uchun namunaviydir. Biz imkon qadar har bir masalani yoritish jarayonida o'tmish tariximizga va hozirgi kunda amalga oshirilgan ta'lim-tarbiyaga xos bo'lgan tariximizda va hozirgi kunda amalga oshirilgan ta'lim-tarbiyaga xos bo'lgan omillarni tadbiq etib chiqishga harakat qildik. Zero, bu tavsiya hamda takliflar kelgusida o'quvchi yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga estetik munosabatlarni shakllantirish va tarkib topishida imkon qadar qo'l keladi, deb ishonch bildirib qolamiz

Yoshlar estetik ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lishi musiqa ijodiyotining ilmiy-tarixiy asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etgan holda, har bir musiqa madaniyati o'qituvchi-murabbiylar oldiga mas'uliyatli vazifalar qo'yilganligini e'tirof etishimiz zarurat ekan. Shu bilan bir vaqtning o'zida, an'anaviy milliy musiqa ijodiyotini yoshlarimiz tomonidan o'z vaqtida o'rganilishi milliy an'ana va ma'naviyatni yanada yuksaltirishga, o'quvchilarda Vatanga, xalqiga, insoniy sifat-fazilatlarini takomillashuviga olib kelishini his etish kabi omillarni tarkib toptiradi.

Biz yoshlarning estetik munosabatlarini yanada takomillashtirish borasida oldimizda turgan masalarni hal etishga qaratilgan bir qancha tavsiya hamda takliflarni kiritdiki, ular imkon qadar har bir musiqa madaniyati o'qituvchlari uchun metodik-uslubiy-amaliy yordam beradi, deb ishonch bildiramiz.

## **Milliy musiqa ma'naviy barkamollikning namunasi ekanligi. Musiqa merosiga muhabbat ruhini shakllantirish**

Milliy ma'naviyat hamda madaniy yuksalishning asosiy maqsadlaridan biri yosh avlodning ong va tafakkurini yuksaltirish, estetik munosabatlarga bo'lgan talablar doirasida tarbiyalash, o'tmish ajdodlarimizdan qolgan meros, ya'ni musiqa ijodiyotni chuqur o'rganish zaruratiga e'tibor qaratilishini zarur. O'zlikni anglashning o'sishidan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Demak, har bir ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan murabbiy-ustozning kundalik pedagogik jarayonida o'sib kelayotgan avlodning milliy, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalab voyaga etkazish mas'uliyati ekanligini his etishimiz kerak. «O'zbekistonda, - deb yozadi professor S. Mannonov, yangi ma'naviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini jadallashtirmoqda. Tarixiy, madaniy va ma'naviy ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish san'atning barcha sohalarida bo'ganidek, musiqiy san'atda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar ma'naviyatimizning asosiy o'zagi bo'lishi va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq yangi talablar asosida baholash zaruratini taqozo etmoqda».

Barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa, ijtimoiy hayotda yoshlarimizning estetik munosabatlarini shakllantirishda musiqaning o'рни va ahamiyatini to'g'ri tahlil qilib, uning ta'sirchanlik kuchiga imkon qadar etarlicha baho berishda murabbiy ustozlarning ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda faoliyat ko'rsatishlari, shu bilan bir vaqtning o'zida, xalqimizning

insoniyat madaniy taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon ma'naviy xazinasiga qo'shgan hissasini, ulug' ajdodlarimiz yaratgan madaniyat va sanoat boyliklarini, musiqiy madaniyatning kelajak avlodga o'z holicha etkazish, bugungi kunda ushbu ma'naviy boyliklarini istiqlol mafkurasi manfaatlari yo'lida shu ruhda tarbiyalash, barchamizning burchimizga aylanib kelmoqda.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq tarixiy jaaryonni an'anaviy ijroda o'z talqinini tarannum etgan kasbiy musiqa, xalqimizning betakror bastakorlik maktabi, shuningdek an'anaviy, folpklor-badiiy havaskorlik musiqiy, og'zaki ijodi va boshqa ko'rinishdagi manaviy merosga xos bo'lgan boyliklar xalqimizning an'anaviy, milliy qadriyati darajasida mumtoz meros o'z asosida yosh avlod tarbiyasining yuksaltirish ishidagi bosh mezonlardan biriga aylanganligini ta'kidlaymiz. Bu borada akademik yunus rajabiyning «Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan» - deb ta'kidlab o'tganlar. (Bu ma'lumotlar S. Mannonovning «o'zbek xalq musiqa madaniyati monografiyasi»ning 2-betidan ko'chirma).

O'tmish tariximizga va hozirgi kunimizda ham an'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz insonlarni hamisha iymonga, mehr-muruvvatga, ahillik hamda hamjihatlikka chorlab kelgan. Bunday tamoyillarning tub negizida o'tmish ajdodlarimizning beminnat xizmatlari hamda ijodiy maxsullarining mohiyati yotganligini ko'ramiz. Ayniqsa, Qurooni karimning o'zbek tiliga o'girilishi, hadisu shariflarning to'liq nashr etilishi, Nosiriddin Rag'buzy, Ahmad Abu Nasr Motrudiy va boshqa o'nlab buyuk siymolarimizning asarlaridan bahramand bo'lishlik, bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning ma'naviy dunyosining hikmatli o'git va amallaridan o'z vaqtida foydalanish barchamizni xayrli ishlarga safarbar etganligining

o'zi ham istiqloqlarning sharofatidir. Albatta bu boradi buyuk davlat, buyuk o'tmishning kelajagiga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda, o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millat bilan faxralanadigan va buyuk kelajakka ishonadigan zarurati yotadi.

Zero, o'rta maktab ta'lim-tarbiya tizimi – bu boshlang'ich hamda o'rta bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan tarmoq hisoblanadi. Demak, bu tizimda boshlang'ich bilimlarini olayotgan har bir o'quvchi – yoshlar milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ma'naviy-ma'rifiy bilim asoslarini mukammal o'rganishga harakat qilishlari shartdir. Bu boradi yoshlarimizning komillikka intilish darajasi mukammallik sifatlariga erishishga olib keladi..

Bobokalonlarimiz, buyuk siymo Mir Alisher Navoiyning hikmatlaricha, insonning eng ulug' fazilati – yaxshilik qilmoq va go'zal xulq ekan. Ikkinchisi, rostgo'ylik, uchinchisi hayo. Bunday go'zallik xislatlar jamul-jam bo'lgandagina insonning hayotda sodir bo'lgan barcha go'zallikka moslik – bu estetika munosabatlariga olib kelar ekan. Shunday ekan yoshlarning ta'lim-tarbiyasini estetik munosabatlarda ta'minlash bilan biz uning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini ham shakllantirishga qaratgan bo'lamiz. Albatta, bunday omillarning tub negizida oila, maktab hamda madaniy-ma'rifiy markazlarning, qolaversa keng jamoatchilikning kundalik ijodiy faoliyatidagi bosh maqsad bo'lmog'i kerak.

Xalqimizda bolalarni faqat ota-onagina emas, balki qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla ko'y ham tarbiyalaydi degan gap bor. Shu bilan birga bir bolaga etti mahalla javobgar degan naql ham mavjud bo'lib bu masalada keng jamoatchilik nazarda tutilishi ham qayd etib kelinadi. Xalqimiz madaniyatini yuksaltirishda ularning dunyoqarashini kengaytirishda, yoshlarimizning ong hamda fikrlash



qobiliyatlarini o'zlashtirishda milliy musiqamizning va an'anaviy ijrodagi qo'shiqlarimizning o'rnini beqiyosdir deb tarifi bergan edik. Milliy musiqamiz durdonalari va an'anaviy qo'shiqlarimiz avvaldan xalqimiz orasida ardoqlanib og'izdan-og'izga o'tib, kuylanib, sozlar orqali ijro etilib kelingan va ular o'z vaqtida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lganlar. Mumtoz kuy va qo'shiqlar yoshlarimizning tafakkurini maonaviy estetik xususda kamol toptirishda asosiy vosita bo'lib kelg

Ulug' mutafakkir shoir Saodiy sheroziy kuy va qo'shiqni «Ruh ozuqasi» deb atagan ekanlar. Ulug' Abu Ali Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarining 1-kitobida shunday yozadi: «Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va ashuladir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqada bo'lgan isteododi hosil qilinadi» (S. Mannonov. Yuqoridagi monografiya, 84-bet). Ko'rinib turibdiki, bobokalonimizning bu so'zlarining mazmunida bola tarbiyasiga musiqaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlanganligini tushunamiz. Shunday ekan, qo'shiqlarimizning ta'sirchanlik xususiyati ijrochining mavzu tanlashi, bola ruhiyatiga mos keladigan mazmundagi ijroning kuchi har qanday insonni o'ziga tortish qobiliyatiga egadir.

An'anaviy qo'shiq ham kuylarimizning ta'sirchanlik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qiladigan bo'lsak, ularda inson hayotining barcha jabhalarida sodir bo'ladigan yumushlari, ijtimoiy hodisa hamda voqealarga bog'liqlikni ko'ramiz. Ijtimoiy hayotning barcha davrlarida ham inson musiqiy madniyat va san'at sarchashmalaridan bahramand bo'lib kelgan qarashlarini ma'lum darajada yuksaltirishga ijodiy safarbarlik yaratishga harakat qilganlar. Ma'naviy barkamollik xalqimizning azaliy, umuminsoniy qadriyati bo'lib kelgan,

hozirgi kunimizda ham o'z samarasini berib kelmoqda .

Kuy-ulug' ne'mat, chunki u inson qaliga ma'naviyat ulanish vositasi deb e'tirof etilgan. Qo'shiq esa ma'lum mazmun, ma'no va mohiyatga ega bo'lgna poetik, asar she'riy matndir. Asarning poetik uyg'unlik ta'minlaydi. Bu uyg'unlik yoshlar ta'lim-tarbiyasining ajralmas qismi sifatida ularning musiqiy estetik madaniyat, ma'naviy dunyosini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ma'lim tarbiyasida xalq musiqasi an'analaridan unumli va o'rinli foydalanish bugungi kunda har qachongidanda dolzarb ta'limiy muamilaga aylanadi. O'zbek musiqasining «internatsionallashuvi» natijasida o'zbek xalq musiqasi an'analaridan foydalanishdan chetlashish hollari kuzatilmoqda.

Kuy, ohang – inson ruhidagi shohiy kayfiyat ifodasi. Musiqiy asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab hayolda paydo bo'lib, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi. Ohang sadosining umri juda qisqa: paydo bo'lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g'oyib bo'ladi. Lekin ta'sirli tovush, ohang eshituvchi qalbida iz qoldiradi, zavq uyg'otadi va shu lazzatli holatga qaytadan intilishga da'vat etadi..

Kuy zavqini saqlab qolishning eng oddiy yo'llaridan biri dilda paydo bo'lgan holatni yaqin qalblar bilan baham ko'rish. Agar kuyning dastlabki ohangi qabul qilinsa, befarq qolmasdan ta'sir o'tkazsa, mazkur zavq lazzatini davom ettirish ishtiyoqi uyg'otadi. Ushbu ruhiy holatda ijrochi va eshituvchining qalblari bog'lanib, ular kuydan birdek ozuq ola boshlaydi. Ana shunday his-tuyg'ular tutashuvidan uyg'unlashgan musiqa jarayoni yuzaga keladi va unda ijrochi ijodkor – yaratuvchilar, eshituvchi esa uning muxlisiga aylanadi. Bu zavq tobora rivojlanib, ohanglar birlashib, kuy jummlariga, ular esa o'z navbatida yanada yirikroq birikmalarga aylanib boradi. Shu tariqa birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo'ladi. Ular

tutashuvidan yirik asarlar yuzaga keladi. Demak, musiqa shunchaki tovushlar majmuasi emas, aksincha, parda va usullarning muvofiqlashgan tizimidir. Eng muhimi, kuy bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. Ma'nosiz tovush esa shovqin-surondan bo'lak narsa emas. Ayniqsa, an'anaga aylangan e'tiborli kuylar negizida shunday chuqur ma'nolar yotadiki, xalq xotirasi ularni mumtoz asarlar sifatida saqlab keladi. «Xalq musiqasi» deb nomlanuvchi benazir musiqa shajarasi ham shu yo'sinda voyaga etgan.

Temuriylar davrida «ilmi advor» (advor doiraning ko'pligi) degan tushuncha bo'lgan va u kuy, vazi hamda she'riyatning nazariy va amaliy asoslarining mushtarakligini nazarda tutgan .

Xalq musiqasi san'atining an'anaviy xayot tarzi, ahloq normalari hamda musiqaning ma'naviy oziq, insonni kamolatga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentaliteti mavjud .

Qisqasi, xalq musiqasi so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan musiqiy tasavvur va g'oyalar dunyosi. Uning o'q ildizlari aql va his – tuyg'u manbalaridan barobariga ozuqa oladi. U musiqa, she'riyat va raqs san'atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy jarayon. Uning tarkibidagi she'r va raqs shunchaki bezak yoki to'ldirish o'rnida keladigan ikkinchi darajani vositalar emas, aslo. Aksincha, unda kuy va ohang, so'z va she'r, raqs va harakat jilolari chambarchas bog'lanib, yaxlit badiiy shaklda uyg'unlashadi. Ana shunday ko'p qirralikka qaramasdan, san'at asari eng avvalo, musiqa, kuy demakdir. U kichik lavhadan tortib bir butun yirik turkumgacha musiqiy omil tarzida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa, ijtimoiy hayotda yoshlarimizning estetik munosabatlarini shakllantirishda musiqa

fanining o'rnini va ahamiyatini to'g'ri tahlil qilib, uning ta'sirchanlik kuchiga imkon qadar etarlicha baho berishda murabbiy ustozlarning faoliyat ko'rsatishlari, shu bilan bir vaqtning o'zida, xalqimizning insoniyat madaniy taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon ma'naviy xazinasiga qo'shgan hissasini, ulug' ajdodlarimiz yaratgan madaniyat va san'at boyliklarini, musiqiy madaniyatning kelajak avlodga o'z holicha etkazish, bugungi kunda ushbu ma'naviy boyliklarini istiqloq mafkurasi manfaatlari yo'lida shu ruhda tarbiyalash, barchamizning burchimizga aylanib kelmoqda.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq tarixiy jarayonni an'anaviy ijroda o'z talqinini tarannum etgan kasbiy musiqa, xalqimizning betakror bastakorlik maktabi, shuningdek an'anaviy, folpklor-badiiy havaskorlik musiqiy, og'zaki ijodi va boshqa ko'rinishdagi ma'naviy merosga xos bo'lgan boyliklar xalqimizning an'anaviy, milliy qadriyati darajasida mumtoz meros o'z asosida yosh avlod tarbiyasining yuksaltirish ishidagi bosh mezonlardan biriga aylanganligini ta'kidlaymiz.

O'tmish tariximizga va hozirgi kunimizda ham an'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz insonlarni hamisha iymonga, mehr-muruvvatga, ahillik hamda hamjihatlikka chorlab kelgan. Bunday tamoyillarning tub negizida o'tmish ajdodlarimizning beminnat xizmatlari hamda ijodiy maxsullarining mohiyati yotganligini ko'ramiz. Albatta bu boradi buyuk davlat, buyuk o'tmishning kelajagiga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda, o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millat bilan faxralanadigan va buyuk kelajakka ishonadigan zarurati yotadi . Avvalo ,musiqa darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi va saboq chog'ida musiqaning muayyan mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyatida qabul etiladi. Uchinchidan, dars mavzusining qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqs va musiqali-ritmik xarakterlar, chanak va bolalar cholg'u asboblari, shiqildoq, doiracha, qoshiq va boshqalarda musiqaga jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu usullar zahirida o'yin xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha uslub va yo'llar dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bo'lagi sifatida amal qiladi. Bu jihatdan «musiqa» predmeti kompleks (integral-aralash) dars tipiga kiradi va unda darsning umumiy mavzusiga bo'ysunuvchi, o'zaro mantiqan bog'lanuvchi musiqiy tahlil-tarbiyadagi uslub va yo'llarga amal qilinadi: musiqa idroki (tinglash), kuylash, musiqa savodi, raqs va ritmik harakatlar, chapak va cholg'u asboblari chalish hamda musiqa ijodkorligi.

Musiqa idroki, uslubi dars mashg'ulotlarida etakchi dars mashg'ulotlarida etakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzusiga doir oddiy musiqiy – pedagogik tahlil etiladi. Eshirish orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilish ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi.

Bunda Sharq xalqlari musiqiy merosini o'rgatish orqali millatlararo totuvlik g'oyasini targ'ib etish imkoni yaratiladi. Shunga ko'ra O'rta umumta'lim maktablarining 6-sinfida Sharq xalqlari mumtoz musiqasini o'rganish chorak mo'ljallangan bo'lib, dasturga ko'ra chorakda turk xalqlari kuylaridan

ozarbayjon, qirg'iz, uyg'ur, hind, arab, yapon, o'zbek va tojik xalq mumtoz qo'shiqlaridan namunalar tinglanadi. Ulardan ayrimlarini, xususan tojik xalq kuyi «nayrez» ni rubobda chalib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuy chalinar ekan. O'quvchilar o'zbeklar uchun nihoyatda qadrdon ko'rinishi ham, kiyinishi ham, madaniyati, adabiyoti va musiqasi, urf-odatlar va turmush tarzi eng yaqin bo'lgan tojik xalqi haqida so'zlab beriladi. Ayni paytda o'quvchilarning fikrlari tojik xalqining mumtoz asarlari va ularning ijrochilariga qaratiladi. Tojik xalqining ham maqollari aynan «Shashmaqom» tarzidagi tuzilishiga ega ekanligiga «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida guvoh bo'lganligimiz haqida so'zlab beriladi. Tojik xalq cholg'u ansambillari singari doira, dutor, rubob kabi cholg'u sozlaridan tashkil topganligi haqida ma'lumot beriladi. mumtoz ashulalarning mohir ijrochilari bo'lgna Hanifa Mavlonova, Shohista Mullajonova, Jo'rabek Nabiev, Jo'rabek Murodov kabi tojik xalq artistlari o'zbek mumtoz ashulalari va «Shoshmaqom» sho'balarini mahorat bilan kuylashlari haqida so'zlab beradi. Bunda o'quvchilarning fikrlari asarlarning yuksak mahorat bilan ijro etilishiga qaratilishi lozim bo'ladi. chunki mumtoz asarlarni engil-elpi kuylash nihoyatda kata didsizlik ekanligi alohida ta'kidlanadi.

O'zbeklarga o'z milliy madaniyati bilan juda yaqin bo'lgan xalqlardan biri uyg'urlardir. O'zbek va tojiklarga xos mumtoz musiqaning yirik sikllari uyg'ur xalqida ham mavjudligi, yaoni uyg'urlar ham o'zining o'n ikki maqomiga ega ekanligi haqida ma'lumot beriladi. o'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan uyg'ur musiqachilari va xafizlariga ham keng sharoit yaratib berilganligi. O'zbekiston radiokompaniyasi qoshida uyg'ur xalq ansambli ochilganligi va unda uyg'ur xalq maqomlarini tiklashga imkon berilganligi haqida fikr yuritiladi.

O'quvchilarga o'zbek estradasining asoschisi Botir Zokirov kuylagan arabcha «Tongi shafiq» asarini eshittirib ko'rsatadi. Bu asarni kuylash xonandadan qay darajada yuksak did talab qilinishiga o'quvchilarning fikri qaratiladi. Shu o'rinda o'qituvchi asardagi qatorlardan birini o'quvchilarga kuylatib ko'radi. O'quvchilarning fikrlari asarning qanday mahorat bilan ijro etganiga qaratiladi.

6-sinf darsligida boshqa Sharq xalqlariga mansub bo'lgan mumtoz musiqa haqida ham anchagina keng to'xtanilgan. Mumtoz musiqa haqidagi o'quvchilarning bilimi faqat nazariy va tarixiy faktlardangina iborat bo'lmasligi uchun, har bir Sharq xalqlari musiqasidan eng ta'sirli va yodda qolarli bir kichik lavhani olib, shu ustida batafsil ishlash tavsiya qilinadi. Buning uchun kuy yoki qo'shiqni to'la eshittirish va o'quvchilar bilan yodda saqlanishi lozim bo'lgan qatorni birgalikda taglashlari holda uni o'z cholg'u sozlarida chalib kelishlari va agar u qo'shiq bo'lsa, aynan shu qatorni so'zi bilan aytib berishga harakat qilishlari lozim. Kuy yoki ashulaning shu yoqimli qatori bir necha bor g'olib va kuylab berilgandan so'ng uni maolom bo'g'inda o'quvchilar bilan kuylab ko'riladi. So'ngra esa shu qatori guruhlarga bo'lib o'rgatiladi va nihoyat birgalikda ham kuylatiladi.

Ushbu tajribada sinab ko'rilgan uslub o'quvchilarga har bir millat mumtoz asarlaridan kichik bir shingil kuylab beradi. Bora-bora ular asarning qolgan qismlarini ham o'rganib olishga o'zlarida ishtiyoq seza boshlaydilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga keng yo'l ochib beradi.

Xulosa shuki, Sharq xalqlarining mumtoz asarlarini o'rganishda quyidagi uslublarga alohida e'tibor berish lozim.

Mumtoz asarlar mavzusini o'zbek xalqiga yaqin bo'lgan xalqlarning mumtoz asarlaridan o'rganishni boshlash.

asarlarni shakli ijro etib berish o'quvchilarning badiiy didini o'stirishga sharoit yaratib berish, o'quvchilarning badiiy didini rivojlantiradi.

Har bir Sharq mamlakatlari millatiga xos mumtoz musiqalarni o'rganishda uni o'zbek xalq mumtoz musiqasi bilan solishtirib ko'rish, cholg'u sozlaridagi o'xshashlik mutanosiblik, ularning didini yanada boyitadi.

Har bir millatning mumtoz asarlarni kuylaydigan ashulachilari va sozandalari haqida so'zlab berish, darsni qiziqarli o'tishga va faktlarni mustahkam yodda saqlab qolishga sharoit yaratib beradi.

Yangi yaratilgan mumtoz asarlardan namunalar kuylash va kuylatish mumtoz asrlar faqat tarixga mansub emasligi va u doim yangilanib turishi haqida tasavvurni kengaytiradi.

Har bir millat mumtoz asarlaridan namunalar kuylatish, asar haqidagi tasavvurni jonlantirishga va bora-bora bu tasavvurni kengaytirib borishga yo'l ochadi. Asarning eng yoqimli joyidan namuna olib kuylatish o'quvchilarni mustaqil ishlashlariga ham undaydi.

O'quvchilar o'z tengkurlaridan eshitgan narsalarini tez esda saqlab qoladilar va shuning uchun ham o'quvchilarni namuna sifatida kuylatish tajribasidan keng foydalanish foydadan holi emas.

Ikkinchi holatda musiqa asarlari avval tinglanib (idrok etilib), so'ng u yoki bu faoliyati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan, o'rgatiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida (tasma orqali ham) bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rgatishga kiritiladi; raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so'ng, raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi. Ko'pincha asar bir necha uslub uyg'unligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va



boshqa) o'rganiladi. Bunday mashg'ulot usuli asarni puxta o'rganish va ayni holda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zahirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Yoshlar musiqiy ta'lim-tarbiyasida musiqa savodi barcha faoliyatlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi uslub (tinglash, kuylash, raqs va boshqa) qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va hakoza) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki yoshlarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim tushunchalar majmuasini (musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy usublari, xalq musiqasi, nota savodi va boshqalar) singdirib borishdan iborat.

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyati o'zaro uviy bog'lanish bilan qolgan barcha uslublar amaliyotiga etakchilik qiladi. Kuylash uslubi o'quvchilarning musiqa-o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz-ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash, kuylash usublari o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash uslubi vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarini ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

Dasturda raqs va musiqali harakatlar bajarish uslubiga alohida o'rin berilgan. Bu uslublar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiyatini

ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarur. Darsda o'rgatiladigan raqs va harakatlar boshqa dars chog'ida (jismoniy tarbiya, tanaffuslarda) keng qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan olamga dong taratgan. Ammo maktab ta'lim tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajadiligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi maolum bo'ladi.

Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs sanoatimizning oddiy harakatlarini bilishi (ijro eta olish) va darsda qo'llash usullarini puxta egallash davr talabidir. Chanoq va cholg'u asboblarida chalish uslubi ham raqs va musiqali harakatlar singari o'quvchilarning musiqa (o'quv qobiliyatlari) hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblar bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayroq qoshiq, kichik sopollar kabi urib chalinadigan cholg'u asboblaridan foydalanib, o'qituvchi ijrosi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

Musiqa ijodkorligi uslubi bolalarda musiqiy taqakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu uslub o'qituvchi ijrosiga doira chertib jo'ravozlik qilish, sinf ijrosiga «diriijyorlik» qilish, kuy ohangiga mos xarakatlar topish, she'r parchasiga kuy, «bastalash» kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Bu uslub sinfdagi iqtidorli o'quvchilarga e'tiborlikka kuchaytirish, ularning badiiy e'tiyojini qondirish uchun ayniqsa muhimdir.

## 5-sinf



**Mavzu: "Simfonik cholg'u orkestrda urma-zarbli cholg'u asboblari"**

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarda estetik go'zallikni uyg'otish, o'quvchilarning nutqini boyitish, tasavvur qilish qobiliyatlarini va xotira proseslarini rivojlantirish, dunyo qarashlarini kengaytirish

**Dars turi:** Kichik guruhlarda ishlash (Musobaqa usuli)

**Darsda foydalanadigan metodlar:** "Aqliy xujum", "O'yla, izla, top"

**Darsda foydalanadigan jihozlar:** texnika vositalari, musiqa asboblari, slaydlar, ko'rgazmali va tezkor test tarqatma materyallar

### **1.Tashkiliy qism:**

*Musiqa xonasida yoqimli musiqa ohangi yangraydi. O'quvchilar kuy ohangida musiqa xonasiga kirib kelishadi va o'rindiqlariga joylashishadi.*

## 2.O'tilgan mavzuni takrorlash

*O'quvchilarni Vatan haqida, Ona tabiat, milliy urf-odatlar, an'analar va qadryatlar, yurtimiz tarixi haqida shuningdek, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, yurtimizda olib borilyotgan islohatlar haqida o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarini mustahkamlanadi.*

## 3.O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

- **O'qituvchi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1875-sonli qarorida "Chet tillarni o'qitishni takomillashtirish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilingandan so'ng barcha ta'lim sohalarida chet tillarni mukammal o'qitishga e'tibor qaratildi. Sizlar ham ingliz tili va rus tili fani bo'yicha bilim va malaka olib kelmoqdasiz. Keling, siz bilan musiqa fanida ishlatiladigan so'zlar va jarayonlarni ingliz tilida va rus tillarida talaffuz etsak.

**Men qo'shiq kuylashni yoqtiraman.**

**- I layk singing songs.**

**Men raqsga tushishni yoqtiraman.**

**- I layk dancining.**

**Men musiqa tinglayapman.**

**-I am listening to music.**

**Xonanda-Singer**

**Bastakor-Compositor**

**Shoir-Poet,**

**Ansambl –Ansambl**

**Guruh - Band**

**Cholg'u asboblari-Musical instruments**

**Klip - Clip.**

**Bir - One, Ikki - Two, Uch – Thre, To'rt - Four, Besh - Five, Olti-Six, Yetti -Seven.**

**-O'qituvchi:** Sizlar bilan musiqaga oid so'zlarni va

musiqa jarayonlaridagi xolatlarni ingliz tilida qanday nomlanishini talaffuz etdik va o'rgandik. Keling ushbu so'zlarni endi rus tilida qanday atalishini va talaffuz etilishini o'rgansak, marhamat

**Men qo'shiq kuylayman.**

**Я пою песню**

**Men raqsga tushishni yoqtiraman.**

**Я люблю танцевать.**

**Men musiqa tinglayapman.**

**Я слушаю музыку.**

**Xonanda - Певец**

**Sozanda - Музыкант**

**Cholg'u asboblari - Музыкальные инструменты**

*Musiqiy mavzu*

**-O'qituvchi:** Biz sizlar bilan o'tgan musiqiy mavzuda qanday mavzu bilan tanishgandik?

**-O'quvchi:** Biz o'tgan mavzuda "Simfonik orkestrda yog'och va mis damli cholg'ular" haqida tanishganmiz.

**- O'qituvchi:** "Simfoniya" so'zi qanday ma'noni anglatadi va u qachon va qayerda shakllangan.

*(Ekranida slaydda tasvirlanadi)*



**- O'quvchi:** "Simfoniya" so'zi yunoncha tildan olingan bo'lib, ikki- "sun"(birga) va "fone"(tovush)so'zlaridan tashkil topgan.Simfonik orkestr XVIII asrda yevropada shakllangan bo'lib, orkestr turlari ichida butun dunyoga keng tarqalgan.

- **O'qituvchi:** Simfonik orkestr nechta cholg'u guruhidan iborat?

- **O'quvchi:** Simfonik orkestrda cholg'u guruhi to'rtta guruhdan iborat.Ular quydagicha:

1. **Yog'och damli cholg'ular.**

2. **Mis damli cholg'ular.**

3. **Urma-zarbli cholg'ular.**

4. **Torli-kamonli cholg'ular.**

- **O'qituvchi:** Yog'och damli cholg'ularga qanday asboblardan kiradi?

- **O'quvchi:** Yog'och damli cholg'ularga fleyta, gaboy, klarnet va fagotlar kiradi



- **O'qituvchi:** Mis damli cholg'u guruhiga qanday asboblardan kiradi?

- **O'quvchi:** Mis damli cholg'u guruhiga valturna, truba, trombob va tuba kabi asboblardan kiradi.

- **O'qituvchi:** Torli-kamonli cholg'u guruhiga qanday asboblardan kiradi?

- **O'quvchi:** Torli-kamonli cholg'u guruhiga I va II skripkalar, violenchel va kontrabaslar kiradi.





**-O'qituvchi:** Juda yaxshi, sizlar bilan o'tilgan mavzularni mustahkamlab oldik, endi esa diqqatingizni ekranga qarataman va ekranda namoish etiladigan ikki xil taronani tinglab tamosha qilish bilan birga cholg'u asbobining nomini va qanday cholg'u guruhlarga mansubligini aniqlab berasizlar, marhamat

*O'quvchilar tasvirga qarab birin ketin asboblarning nomlarini va qanday cholg'u guruhga mansubligini aniqlaydilar. Shu bilan birga guruhlarni tezkor test savollariga tezkor javob berishlari orqali ham baholab boriladi.*

### **TEZKOR TEST**

1-savol: Musiqani kim bastalaydi?

a) Sozanda      b) Xonanda      d) Bastakor.

2-savol: Raqsni qanday sur'atda ijro etiladi?

a) Sho'xchand      b) Juda tez      d) Sekin

3-savol: Laylo Mujdaboyeva kim?

a) Bastakor      b) shoir      d) sozanda

4-savol: O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining ijodkorlarini aniqlang?

a) A.Oripov she'ri, A.Mansurov musiqasi      b) E.Vohidov she'ri, T.Jalilov musiqasi

d) A.Oripov she'ri, M.Burhanov musiqasi.

5-savol: O'zbek xalq cholg'u asboblari qanday asboblarga kiradi?

a) Dutor, baraban, tarelka      b) nog'ora, karnay, dutor, rubob  
d) Daff, gitara, fleyta

6-savol: Xorda nech xil ovoz bor?

a) 2 xil      b) 3 xil      d) 4 xil

## QO'SHIQ KUYLASH

- **O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, mana sizlar bilan tasvirda namoish etilgan kuyni tinglab tamosha qilish bilan birga cholg'u asboblarning nomlarini va qaysi guruhga mansubligini aniqladik, keling endi qo'shiq kuylash jarayoni bo'yicha ham bilim va malakalarimizni charxlab olsak. Sizlar bilan o'tgan darsimizda qanday qo'shiqni ijro etganmiz?

- **O'quvchi:** Biz o'tgan darsimizda "Oltin kuz" deb nomlangan qo'shiqni ijro etganmiz. Qo'shiqning so'zi Normurod Nazrullayev qalamiga mansub bo'lib, musiqasini Avaz Mansurov bastalagan. Qo'shiqni quvnoq sur'atda ijro etiladi.

- **O'quvchi:** Shoirimiz o'z she'rida kuz faslini juda ham chiroyli tasvirlagan. Shoir kuz faslini "Oltin kuz" deb bejizga atamagan, chunki, kuz faslida daraxtlarning yaproqlari sarg'ayib, xuddi oltin rangdek ko'zni qamashtirib tovlanadi va kuz faslidagi barcha hodisalarni aniq bayon etgan.

- **O'qituvchi:** Keling, sizlar bilan o'tgan darsimizda ijro etgan qo'shig'imizni qaytadan takrorlab yodga olsak.

Qoshiq kuylashdan avval ovoz sozlash mashqini bajaramiz. Eng avval, "Do major" tonaligida tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz etamiz.

Aytingchi, musiqada nechta nota tovushlar bor?

- **Oquvchi:** Musiqada yettita nota tovushlar bor. Ular quydagicha,

**Do Re Mi Fa Sol Lya Si.**

-**O'qituvchi:** To'g'ri, qani endi do major gammasini nota chizig'ida mana shu ettita tovushlarni joylanishiga e'toborimizni qaratamiz va nota tovushlarini kuylash davomida nafas olish qoidalariga e'tibor qaratamiz.

*(Ekranda do-major gammasi tasviri namotish etiladi)*

*Ovoz sozlash mashqida uch tovushlikdagi nota tovushlarini sanoqlariga qarab, ingliz tilida ham ijro etamiz. Masalan:*

**DO, MI, SOL**  
**I, III, V**  
**One, three, five**



SOL, FA, MI, RE, DO  
V, IV, III, II, I  
Five, foure, three, two, one

*Ovoz sozlash mashqida guruhlarini zarbli cholg'u asboblardan doira asbobini 3 xil yo'nalishda ijro etadilar.*

**1-guruh:** bum ba-ka bum, ba-ka ba-ka bum

**2-guruh:** bum bum ba-ka bum, bum ba-ka bum

**3-guruh:** bum bum ba-ka ba-ka bum ba-ka ba-ka

*Ushbu usullarni ovozda ijro etadilar va qobilyatlari va malakalarini mustahkamlaydilar.*

**-O'qituvchi:** Mana sizlar bilan ovoz sozlash mashqini ham bajarib, ovozlarimizning tovush pardalarini qo'shiq kuylashga ham tayyorladik, endi esa sizlar bilan "**Oltin kuz**" deb nomlangan qo'shiqni ijro etamiz.

*O'qituvchi qo'shiq mualliflarini tanishtirib, qo'shiqning mazmunini tushuntiradi. Qo'shiqning jumlaiarga bo'lib naqoratgacha kuylab ko'rsatadi va guruhlariga qo'shiq jumllalarini bo'lib, sof intonatsiyada kuylashga erishiladi.*

*(Ekranda qo'shiqning nota yo'liga tushirilgan tasviri namoyish)*

**-O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, mana, sizlar bilan qo'shiq kuylash jarayonini ham mustahkamladik, keling, endi musiqa savodimizni ham mustahkamlab olsak. O'tgan mavzuda sizlar bilan musiqa savodida qanday belgilar haqida tanishganmiz?

### **MUSIQA SAVODI:**

**-O'quvchi:** Biz o'tgan mavzularda musiqa savodidan dinamik belgilar va nota cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilar bilan tanishganmiz.

**P (piano)-kuchsiz,**

**PP (pianissimo)-juda kuchsiz,**

**mp (mesto forte)-kuchli, qattiq**

**f (forte)-kuchli, qattiq,**

**ff (fortissimo)-juda kuchli,**

**mf (merte forte)-kuchliroq.**

**-O'qituvchi:** Juda to'g'ri javob berildi, qani endi kim

dinamik belgilar haqida bizlarga tushincha beradi?

**-O'quvchi:** Kuy va qo'shiqlarni yoqimli bo'lishi uchun yoki biror bir obrazni boyitib, tinglovchilarga eshtirish uchun musiqada dinamik belgilardan foydalaniladi.

**-O'quvchi:** Dinamik belgilarni nomlari italyanча so'zdan olingan bu belgilar nomlanishi va ma'nosini butun dunyo xalqlari bir xil tushinadilar. Shu bilan birga guruh a'zolaridan bir va ikki nafarlari doskada dinamik belgilarni tasavirleydilar.

*O'qituvchi o'quvchilarni bilimini yanada aniqroq bilish va mustahkamlashda fortapianoda bir parcha kuy ijro etadi. Ijro etilyotgan kuyni nota yozuvi ekranda namoyish etiladi. O'quvchilar uni tinglab dinamik belgilarni aniqaydilar*

**-O'qituvchi:** Demak dinamik belgilar italyanча so'zlar bilan nomlanishini, ularning ko'rinishlarini va nota yozuvida joylanishlari haqidagi bilim va malakalarimizni ham charxlab ham oldik, endi esa nota cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilar haqida ham olgan bilimlarimizni mustahkamlasak.

*O'quvchilar bilan musiqa savodi bo'yicha turli belgilar haqida bilim va malakalarini mustahkamlab, bu jarayonni ham yakunlanadi.*

### **MUSIQA TINGLASH:**

**-O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar sizlar bilan musiqa savodini ham mustahkamlab oldik, keling, endi siz bilan musiqa tinglash madaniyatimizni, olgan bilim va malakalarimizni, xotiramizni va tasavvurlarimizni ham mustahkamlab olsak. Biz o'tgan musiqa tinglash jarayonida sizlar bilan qanday kuyni tinglagandik?

**-O'quvchi:** Biz musiqa tinglash jarayonida Fransiyalik kompozitor Pol' Morio yaratgan musiqiy asarini tinglaganmiz. Pol' Mario 1925 yili 4-matrda Fransiyaning Marsel shahrida tavallud topadi.

**-O'quvchi:** U Marselning musiqa konservatoriyasining "klassik fartapiana" cholg'u yo'nalishini tamomlab, 17 yoshida birinchi marta o'zining orkestrini yaratadi. U ajoyib va mohir aranjirofkachilik san'atini egallab, xalq yaratgan klassik kuy va qo'shiqlarni estrada yo'nalishida qaytadan ishlab, xalqqa xavola etadi. Kampozitor yaratgan musiqalar bugungi kunda butun dunuoga mashhur bo'lib ketgan.

(Ekranda kampozitorni rasmi namoyish etiladi )



**-O'qituvchi:** To'g'ri javob berildi, keling yana bir bor Po'l Mario tomonidan bastalangan va Estrada cholg'u orkestr guruhi tomonidan ijro etilgan kuyni qaytadan tinglab tamosha qilamiz va orkestrda ijro etayotgan barcha cholg'u saboblarga va ularning guruhda joylanish tartibiga e'tiborimizni qaratsakda va o'zaro tahlil qilib mustahkamlasak, marhamat.

*O'quvchilar o'tgan mavzuda tinglab tamosha qilgan kuyni qaytadan tinglab, orkestr guruhida tuzilgan cholg'u asboblarga va ularning joylanish tartibiga e'tiborni qaratadilar va cholg'u guruhining nomlarini aniqlab, musiqa tinglash jarayonini yakunlaydilar. Shundan so'ng, o'qituvchi yangi sanani va yangi mavzuni doskaga yozadi. Har bir shartlarda guruhlar baholab boriladi.*

#### **4. Yangi mavzu: "Simfonik orkestrda urma-zarbli cholg'u guruhi"**

**-O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, bugungi musiqiy mavzuda sizlar bilan "Simfonik orkestrda urma-zarbli cholg'u guruhi" haqida tushun-cha beraman va sizlar bugungi yangi darsda amaliy va nazariy bilim va malakaga ega bo'lasiz va cholg'u asboblari bilan tanishamiz, ular ijrosida musiqa tinglaymiz.

**Simfonik orkestrda cholg'u guruhi 4 ta guruhga bo'linadi.**

- 1. Yog'och damli cholg'ular.**
- 2. Mis damli cholg'ular.**
- 3. Urma-zarbli cholg'ular.**
- 4. Torli-kamonli cholg'ulardan iborat.**

Urma-zarbli cholg' u guruhiga tarelka, baraban, litavra va zamonaviy zarbli cholg' u saboblar kiradi. Urma-zarbli cholg' u asboblari orkestrning yuqori qismida joylashgan. Simfonik orkestrning cholg' u guruhida 20 dan ortiq butun dunyoga keng tarqalgan. O'zbekiston Bastakorlari nog' ora va doiralarni mohirona ishlatadilar.

*(Ekranda zarbli cholg' u rasm namoyish etiladi)*



*Dars jarayonida zarbli cholg' u asboblarni yaratilishi, uni ijro etish usullari haqida o'quvchilarni yanada aniq va to'laqonli tarzda yetkaziladi. Sharq va g'arb xaqllarining zarbli cholg' u asboblari haqidagi ma'lumotlar beriladi. O'quvchilarga sharq va g'arb xalqlarining urma-zarbli cholg' u asbobidan tabla, daff, baraban, tarelka litavra kabi asboblari haqida tanishtirib, o'quvchilarni qiziqtirgan savollariga javob beriladi, mavzuni yakunlanadi.*

### **5. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

**-O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, zerikib qolmadinglarmi? Kelinglar endi sizlar bilan biroz musiqiy tanaffus qilib, sizlarning zukkoligingiz, topqirligingizni va xotirangizni nechog'lik kuchli ekanin aniqlashda **"O'yla, izla, top"** o'yinini o'ynaymiz. Demak, 3ta guruhlarimizga simfonik orkestrdagi urma-zarbli cholg' u asboblari ijrosidagi taronalardan qisqacha xavola qilib boraman, sizlar esa kuydagi cholg' u asbobining nomini va qaysi xalq ohanglariga mansubligini aniqlaysiz, marhamat.

*O'quvchilarga simfonik orkestrdagi urma-zarbli cholg' u asboblari ijrosidagi taronalardan qisqacha xavola qilinadi. Guruhlar ohanglarni tinglab ohangda ijro etilgan baraban, tarelka, litavra kabi asboblarni nomlarini aniqlab, ularni bir biridan farqlay olishga va sharq*

*xalqlarining urma-zarbli cholg'u asboblari bilan solishtirib, ularni ijro etish uslublari va qaysi xalq ohangiga mansubligini aniqlaydilar. Aniqlash davomida o'zlari ham kuyga mos harakatlarni ifodalaydilar. Qiziqarli o'yin yakunlangach, musiqa tinglash jarayonini ham o'z payoniga etadi.*

**-O'qituvchi:** O'quvchilar, mana sizlar bilan musiqa darsimizning beshta jarayoni bo'yicha o'tgan mavzularda va yangi mavzular asosida bilim va malakalarimizni mustahkamlab oldik. Urma-zarbli cholg'u asbobi haqida o'z tushunchamiz, tasavurimiz va dunyo qarashimizga ega bo'ldik, agar ush bu mavzu bo'yicha savollaringiz bo'lmasa uyda bajariladigan vazifalaringizni belgilab bersam.

### **6.Uyga vazifa:**

1. Simfonik orkestrning urma-zarbli cholg'u guruhi haqida batafsil o'rganib mustahkamlash.
2. O'zbek va sharq xalqlarining zarbli cholg'u asboblari nomini o'rganib kelish.
3. "Oltin kuzim" qo'shig'ini matnini mustahkamlab, to'g'ri va chiroyli kuylashni mashq qilish.

## Xulosa

Xalq musiqasi orqali yoshlar ta'lim-tarbiyasi erkin, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini chuqurlashtirish, intellektual zukkolik, ehtiyotkorlik, mulohazakorlik bilan fikrlashga o'rgatishdir.

Yoshlarni mustaqil fikrlashga, imkon yaratish va uni tarbiyalashda yoshlarning taffakuri, salohiyati shakllanishining fiziologik, biologik, psixologik jihatlarini hisobga olmay yondashib bo'lmaydi. Fikrlash imkoniyati endigina shakllanayotgan yoshlar bu faoliyatni o'z aqli bilan mustaqil ham etishga harakat qilishlari lozim. Shu bois yoshlar ta'lim-tarbiyasining vositalaridan biri xalq musiqasi mazmunidagi do'stlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, zukkolik, tadbirkorlik, ozodalik, xushfeollik, mardlik, samamiylik, ziyraklik, lutof qarashlilik, ro'zg'orparvarlik, shinavandlik, tashabbuskorlik, ona yurt va xalqiga muhabbat, diyonatlilik, rostgo'ylik, xalollik, ornomuslilik, vazminlik, xojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, millatparvarlik singari fazilatlar ularning mustaqil fikrlash faoliyatini o'zagini tashkil etmog'i lozim. Bu milliy ahloqiy qadriyatlarni yoshlarga chuqur singdirish ularning kamolotiga asos bo'ladi.

Milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri kishilarda yuksak ahloqiy fazilatlarni shakllantirishdir. O'zbeklar hamma vaqt, ahloq, odob, tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berib kelishgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, ahloqiy kamolot inson hayotida burch va g'oyalar, yaxshilik, e'tiqodni shakllanishiga asos bo'ladi.

## *Adabiyotlar*

1. *Izzat Sulton. «Adabiyot nazariyasi»*
2. *O'zbek xalq musiqasi T., 1959 y.*
3. *Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik. Tanlangan asarlar 1-tom, T., Fan. 1968 y.*
4. *Sarimsoqov B. O'zbek marosim folg'klori T., Fan. 1968 y.*
5. *Mahmud Qoshg'oriy. Devonu lug'ati turk. 3-tom T., 1960 y.*
6. *Milliy istiqlol g'oyasi. Asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000 y.*
7. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997 y.*
8. *Sh .Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning -ishi ham ulug' hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi 2020 y.*

